

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BOG'DORCHILIK RIVOJI****Baxtiyorov Laziz Xolmurod o'g'li***“Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari institute”**Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur va undan o'rnak olgan temuriylar sulolasi vakillarining bog'dorchilik sohasidagi xizmatlari tahlil qilingan. Temuriylar davri Movarounnahrda rivojlanish jarayonlari butun dunyo tomonidan e'tirof etilgan holatlardan hisoblanadi. Maqoladan Amir Temur tomonidan boshlangan bunyodkorlik ishlarining nafaqat Movarounnahr, balki Xuroson, Eron, Hindiston va dunyoning boshqa hududlarida davom ettirilish tarixi haqida mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Bog'dorchilik, “Irshod az-ziroa”, Amir Temur, Husayn Boyqaro, Samarqand, Dilkusho, Bog'i Nav, Oqsaroy, Hirot

Yangi O'zbekistonda vatan tarixini o'rganish, buyuk davlatlar qurgan ajdodlarimizning boy tarixiy tajribalarini yuzaga chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ham Amir Temur faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish chaqiriqlari biz tarixchilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklamoqda. Amir Temur vatanimiz va dunyo tarixida nafaqat harbiy yurishlari, buyuk davlat barpo etgan hukmdor, balki Movarounnahr zaminida va dunyoning ko'plab hududlarida masjidlar, madrasalar, yangidan yangi shahar-u qishloqlar barpo etgan bunyodkor hukmdor sifatida ham nom qoldirgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqand atroflarida barpo etilgan bir qancha bog'lar hozirgi kunga qadar dunyo ilm-fan jamoatchiligini hayratga solib kelmoqda. Ushbu davrda dunyoning turli hududlaridan poytaxt Samarqandga olib kelingan usta-yu hunarmandlar mahalliy usta-quruvchilar, hunarmandlar bilan hamkorlikda ishlab, mo'jizaviy go'zal bog'larni qurishgan. Hozirgi ekologik muammolar chuqurlashgan zamonda ajdodlarimiz tomonidan qurilgan bog'lar va ularning tajribalarini o'rganib, hayotga tatbiq etish yanada dolzarflik kasb etmoqda.

Amir Temur va temuriylar davri bog'larini o'rganish yuzasidan O'zbekistonda va xalqaro miqyosda bir qancha yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bular jumlasiga tarixchi va arxeolog olimlaridan A. Y. Yakubovskiy⁶⁰, T. Shirinov⁶¹, O'. Alimov⁶², M. S. Bulatov⁶³, N. Gilmanova⁶⁴ kabilar turli davrlarda Amir Temur bog'larining tarixi, tarixiy geografiyasi va 3D shaklda yaratish masalalari bilan shug'ullanishgan. Xalqaro

⁶⁰ А. Якубовский “Образы старого Самарканда” Восток. Книга 5. Москва: 1925

⁶¹ Т. Ширинов “Тарихимиз этюдлари” Т.: 2014

⁶² Ў. Алимов “Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда боғчилик хўжалиги тарихи” Т.: 1984

⁶³ Булатов М.С. Зодчий и эпоха. // ОНУ, № 8-9, 1969

⁶⁴ N. Gilmanova “Graphical reconstruction of the Timurids era gardens based on works of miniature painting and archaeological researches” International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology; India:2020; 13488-13498



miqyosda esa M. Gharipur⁶⁵, M. Sabetniy⁶⁶, L. Golombek⁶⁷ kabilar ham Amir Temur bog'lari borasida muhim tadqiqotlar amalga oshirishgan. Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri bog'larining qurilish tarixi va bog'larni barpo etgan ustame'morlar faoliyati tadqiq etiladi.

Amir Temur hayotining katta qismini harbiy yurishlarda, o'tkazganiga qaramay, ajoyib saroylar, turli o'simliklar va suv inshootlariga ega bo'lgan bog'larni loyihalash va yaratishga qiziqishi yuqori edi. Temuriylar davrida bog'lar yaratish sulola mafkurasining o'ziga xos ko'rinishiga aylanib, sulolaning qudratini namoyish qilishning o'ziga xos ko'rinishi sifatida talqin qilingan deyish ham mumkin. Bu fikrimizni Sohibqironning Oqsaroy peshtoqiga yozilgan "Bizning quvvat va qudratimizga shubhangiz bo'lsa, biz qurgan imoratlarga boqing" jumalari ham tasdiqlaydi.

Bog' dizayni sohasi Temuriylar davrida tarixdagi boshqa sulolalar davridagidan ko'ra yuksakroq darajada rivojlandi. Samarqand shahri Amir Temur davrida yangi shahar hamda davlat poytaxti sifatida qaytadan qurildi. Mahalliy va xorijlik hunarmandlar ko'magida juda ajoyib va yirik shaharga aylantiriladi.⁶⁸ Shahar atrofi mevazor bog'lar va uzumzorlar bilan o'ralgan edi. Amir Temur poytaxt Samarqand atrofidagi qishloqlarni o'zi zabt etgan mamlakatlardagi shaharlarning nomlari bilan ataydi. Jumladan, Qohira, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz kabilar barpo etiladi. Tarixchi Tomas V. Lensning fikriga ko'ra ular urush o'ljalarining ramziy ko'rinishini ifodalagan bo'lishi mumkin.⁶⁹ Mintaqaning boshqa qismlarining iqlimidan farqli ravishda Samarqandda namlik yetarli darajada bo'lgan. Samarqand va shahar atrofining asosiy suv manbai Zarafshon daryosidan bosh olgan soy va kanallar tarmog'i edi.⁷⁰ Amir Temur va Temuriylar Samarqand shahri atrofida shaharning yashil belbog'i kabi taassurot uyg'otadigan bir qancha bog'lar yaratdilar. Lekin afsuski ulardan hech biri hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan. Shunday bo'lsa-da ushbu bog'lar tarixiy manbalar, sayohatchilarning kundaliklari, miniatyuralar va arxeologik tadqiqotlar orqali o'rganilgan va o'rganilmoqda.⁷¹ Temuriylar davriga oid bir qator tarixiy

⁶⁵ Mohammad Gharipour, *Persian Gardens and Pavilions: Reflections in History, Poetry and the Arts* (London: I. B. Tauris, 2013)

⁶⁶ Maria E. Subtelny, *Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran*. Brill's Inner Asian Library, 2007, 94.

⁶⁷ Lisa Golombek, "The Gardens of Timur: New Perspectives," *Muqarnas*: 1994 Pp. 137-147

⁶⁸ Thomas W. Lentz, "Memory and Ideology in the Timurid Garden" in *Mughal Gardens: Sources, Places, Representations, and Prospects*, edited by James L. Wescoat and Joachim Wolschke-Bulmahn. Washington D.C.: Dumbarton Oaks, 1996.

⁶⁹ Thomas W. Lentz, "Memory and Ideology in the Timurid Garden", *Dumbarton Oaks Colloquium on the History of Landscape Architecture* 16 (Washington DC: Dumbarton Oaks, 1996), p. 33

⁷⁰ Behbahnai, Khosravi, "Persian Garden Between permanence and Innovation," p. 255

⁷¹ Donald Wilber, *Persian Garden and Garden Pavilions*. Tokyo: Charles Tuttle Co, 1962, p. 24





manbalarda Samarqand atroflarida joylashgan bog'lardagi o'n sakkiztagacha saroylar mavjudligi haqida ma'lumotlar qayd etilgan.⁷² Samarqand bog'lari borasida o'tkazilgan zamonaviy tadqiqot ishlaridan mazkur bog'lar to'rtburchak Chorbog' shaklida yoki geometrik kvadrat shakllarida barpo etilganligini bilishimiz mumkin.^{73,74} Saroylar va ko'shklarni barpo etishda takrorlanmas naqshlar va bezaklardan foydalanilishi Temuriylar davri qurilish madaniyatida tarixiy an'analarni o'zlashtirib, uni yanada rivojlantirganligini ko'rsatadi.⁷⁵ Bog'lar devorlar yoki maxsus to'siqlar bilan o'ralgan, ichkari qismida maxsus sun'iy tepaliklar, dam olish uchun soyali daraxtlar, bir yoki ko'p qavatli ayvonlar va binolarni bezashda dabdabali bezaklardan foydalanish kabi umumiy xususiyatlarga ega edi. Bog'lar mahalliy va mintaqaviy qurilish an'alarini yanada rivojlantirish hamda Samarqand shahrining iqlim sharoitlarini yanada yaxshilash uchun xizmat qilishi maqsadida yaratilgan.⁷⁶

Amir Temur tomonidan Samarqand atroflarida qurilgan bog'larning umumiy soni haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Shunday bo'lsa-da, Amir Temur Samarqand va uning atroflarida 12 ta bog' qurdirgani asos sifatida olinar edi. Temuriylar tarixiga doir manbalarni o'rganish jarayonida tarix fanlari doktori professor Omonulla Bo'riyev Amir Temur Samarqand shahri va uning atrofida barpo etgan bog'lari sonini manbalardagi ma'lumotlar asosida quyidagicha keltiradi:⁷⁷

3	Muallif	Tarixiy asar nomi	Keltirilgan bog'lar soni
.	Nizomiddin Shomiy	"Zafarnoma"	6 ta bog'
.	Rui Gonzales de Klavixo	"Kundalik"lar	8 ta bog'
.	Hofizi Abru	"Geografiya	8 ta bog'
.	Sharafiddin Ali Yazdiy	"Zafarnoma"	11 ta bog'
.	Ibn Arabshoh	"Ajoyib ul maqdur fi tarixi Taymur"	6 ta bog'
.	Zahiriddin Muhammad Bobur	"Boburnoma"	9 ta bog'

Ushbu ma'lumotlar Amir Temur davrida Samarqand atroflarida qurilgan bog'lar sonining eng ko'pi Sharafiddin Ali Yazdiy manbasida ta'kidlanganidek, 11 ta deya xulosa qilishimizga asos bo'ladi.

⁷² Thomas W. Lentz, "Memory and Ideology in the Timurid Garden," p. 33.

⁷³ Lisa Golombek, "The Gardens of Timur: New Perspectives," p. 137-147;

⁷⁴ Donald Wilber, *Persian Gardens and Garden Pavilions*, p. 27-29

⁷⁵ Behbahnai, Khosravi, "Persian Garden Between Permanence and Innovation", Turkiye: "TÜBA-KED" 2011 p. 255

⁷⁶ Behbahnai, Khosravi, "Persian Garden Between Permanence and Innovation," p. 255.

⁷⁷ O. Bo'riyev "Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi", T.: 2017 166-bet





1405-yilda Amir Temur vafotidan so'ng bog'dorchilik madaniyati Markaziy Osiyo, Eron, Xuroson va Hindiston hududlarida uning avlodlari tomonidan davom ettirildi. Temuriylar saltanatida XV asrda mamlakatda dehqonchilikning ilm-fan darajasida rivojlanishi sulolaning muhim yutuqlaridan edi.⁷⁸ Bu narsa ayniqsa so'nggi Temuriy hukmdorlardan Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirot hududida yaqqol namoyon bo'ldi. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida dehqonchilik uchun alohida qo'llanma bo'lmish "Irshod al ziroat" qishloq xo'jaligi qo'llanmasi yaratildi.

Temuriylar bog'lari bog'dorchilik san'atining keyingi rivoji uchun kata ta'sir ko'rsatdi. 1506-yilning kuzida Zahiriddin Muhammad Bobur Sulton Husayn Boyqaro vafoti munosabati bilan Hirotga tashrif buyuradi. Tashrif chog'ida Bobur hukmdor bog'lari va saroylari kabi hududlarni aylanib, temuriylar saltanatining gullab yashnagan davri salmog'ini his qilganligi haqida yozib qoldirgan.⁷⁹ Ushbu safar tafsilotlarini yoritir ekan, Bobur Hirotidagi eng mashhur bog'lar haqida ham to'xtalib o'tadi. Bog'lar asosan nisbatan keng, yopiq va sug'orish imkoni bo'lgan hududlarda qurilgan. Bog'lar mevali va soyali daraxtlar, atrofi devor bilan o'ralgan bog'larda sabzavot va uzum dalalari hamda markaziy saroy, suv havzalaridan iborat qilib qurilar edi.⁸⁰ Hirotidagi mahobatli bog'lardan ilhomlangan Bobur keyinchalik Agra va Kobulda ham hukmdor qarorgohlari va imperiyaning yirik tadbirlari uchun ana shunday bog'lar barpo etdi.⁸¹

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Amir Temur davri Markaziy Osiyo me'morchiligida kata rol o'ynadi. Bog'dorchilik an'analari temuriylar davrida yanada rivojlandi. Ushbu davr bog'dorchilik va dehqonchilik tarixini o'rganish orqali qishloq xo'jaligi va ko'kalamzorlashtirish sohasida ko'plab muammolar yechimi topilishi mumkin. Temuriy hukmdorlarning ham ushbu sohalarda mohir bo'lganliklari esa zamonaviy boshqaruv sohasida tarixiy tajriba sifatida talqin etish mumkin bo'lgan faktlardan hisoblanadi.

⁷⁸ Maria E. Subtelny, "A Medieval Persian Agricultural Manual in Context: The *Irshād al-zirā'a* in Late Timurid and Early Safavid Khorasan." *Studia Iranica* 22/2 (1993), p. 110.

⁷⁹ Thomas W. Lentz, "Memory and Ideology in the Timurid Garden," p. 31

⁸⁰ Zahīr al-Ddīn Muhammad Babur, *Baburnāma (Vaqāyi')*, edited by Eiji Mano, vol. I. Syokado, Kyoto, 1995-96, 298; *The Baburnāma: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*, translated by W.M. Thackston, Freer Gallery of Art, Arthur M. Sackler Gallery, Smithsonian Institute and Oxford University Press. New York: Oxford University Press, 1996, 236-237.

⁸¹ Maria E. Subtelny, "The Timurid Legacy: A Reaffirmation and a Reassessment." *Cahiers d'Asie centrale*, 3/4 (1997): 9-19

